

LEKSIK DUBLETLARNING USLUBIY VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA

Rahmonova Aziza

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi leksik dubletlar pragmatik, uslubiy va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Dubletlarning tarixiy shakllanishi, ularning rasmiy va norasmiy nutqda tutgan o'rni, hamda tarjima jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Leksik dubletlar til boyligini ifodalovchi vosita sifatida qaralib, ularning konnotativ ma'nolari va stilistik funksiyalari chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: leksik dubletlar, pragmatika, uslubiyat, semantika, tarjima, sinonimiya.

Kirish. Leksik dubletlar til taraqqiyotining o'ziga xos mahsulidir. Ular ikki yoki undan ortiq shakldagi, shaklan yoki ma'nosi yaqin bo'lgan, biroq uslubiy, konnotativ yoki semantik jihatdan farq qiluvchi so'zlardir. Dubletlar tilning tarixiy rivojlanishi davomida boshqa tillardan kirib kelish, ichki differensiallashuv, stilistik evolyutsiya orqali shakllanadi. Masalan, ingliz tilida: buy - purchase; ask – inquire kabi. Ba'zan kingly – royal – regal kabi uchliklar ham uchraydi; o'zbek tilida ham dublet so'zlar keng qo'llaniladi: ilm – bilim, savdo – tijorat kabi bir qator dubletlarni og'zaki va yozma nutqda ham uchratish mumkin. Dubletlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik nazariyasi uchun, balki tarjima amaliyoti, lingvokulturologiya, stilistika va pragmatika uchun ham muhimdir.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi leksik dubletlar qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilindi. Xususan, ularning semantik xususiyatlari (sinonimik yaqinlik darajasi, konnotativ ma'nolari), pragmatik jihatlari (rasmiylik darajasi, nutq rejimiga mosligi, muomala kontekstdagi roli), stilistik funksiyalari (badiiy, ilmiy, huquqiy va so'zlashuv uslubida qo'llanish holatlari) va etimologik manbalari (kelib chiqish tarixi, tillararo o'zaro ta'sir) chuqur o'rganildi.

Masalan, ingliz tilidagi *liberty* va *freedom* dubletlari sinonimik jihatdan yaqin bo'lsa-da, *liberty* so'zi ko'proq rasmiy, huquqiy kontekstda qo'llanadi, *freedom* esa umumiy nutq rejimida keng qo'llanadi. O'zbek tilidagi *o'lim* va *vafot* dubletlarida esa *vafot* so'zi stilistik jihatdan badiiy va rasmiy kontekstda, *o'lim* esa neytral yoki og'zaki

uslubda ishlatiladi. Har ikki juftlikda ham konnotativ farqlar kuzatiladi, bu esa ularning stilistik va pragmatik xususiyatlarini ajratishda muhim mezon bo'ladi.

Natijalar. Pragmatik xususiyatlar. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, leksik dubletlar rasmiylik darajasini belgilashda muhim pragmatik yuklamaga ega. Ular nutq rejimi va ijtimoiy kontekstga qarab farqlanadi:

Ingliz tilida: *ask* – kundalik nutqda, *inquire* – rasmiy kontekstda ishlatiladi; *help* – umumiy muomalada, *assist* – professional yoki xizmat doirasida qo'llaniladi.

O'zbek tilida: *savdo* – oddiy suhbatda, *tijorat* – rasmiy va iqtisodiy matnlarda ishlatiladi; *xato* – kundalik nutqda, *nuqson* – mahsulot sifati yoki texnik xatolik kontekstida qo'llaniladi. Bu dubletlar tanlovi orqali nutq egasi o'zining ijtimoiy maqomi, muomala ohangi va matn uslubini moslashtiradi. Stilistik xususiyatlar. Dubletlar turli uslubiy qatlamlarda turlicha vazifa bajaradi. Ular badiiy-estetik, huquqiy, ilmiy yoki so'zlashuv nutqida stilistik boylikni ta'minlaydi:

Ingliz adabiyotida: *kingly*, *royal*, *regal* dubletlari monarxiya timsollari bo'lib, poetik-estetik vazifani bajaradi. O'zbek adabiyotida: *nur* va *yorug'lik* dubletlari obrazlilik, lirizm va poetik ekspressiyani oshiradi. Semantik xususiyatlar. Leksik dubletlar ko'pincha sinonim bo'lsa-da, ularning semantik yaqinlik darajasi va konnotativ ma'nolari farqlidir:

Ingliz tilida: *mistake* – umumiy ma'noda ishlatiladi, *error* esa ko'proq texnik yoki rasmiy kontekstda qo'llaniladi. O'zbek tilida: *oqil* – qadimiy, poetik va falsafiy kontekstdagi so'z, *aqli* esa zamonaviy va kundalik nutqda faol ishlatiladi. Bu farqlar dubletlarning sinonimik chegarasini va ularning nutqdagi semantik nozikliklarini ochib beradi.

Munozara va bahslar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, leksik dubletlar har ikkala tilda ham sintaktik, semantik, pragmatik va stilistik funksiyalarning muhim ko'rsatkichidir. Ular tilning sinonimik qatlamini boyitibgina qolmay, nutq egasining maqomini, uslubini va kommunikativ niyatini aniqlik bilan ifodalashga xizmat qiladi.

Pragmatik jihatdan, dubletlar rasmiy va norasmiy uslub orasidagi farqni belgilovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan:

- ingliz tilida: “*He decided to inquire about the matter.*” (rasmiy) vs. “*Can I ask you something?*” (norasmiy);

• o‘zbek tilida: “*Savdo ishlari rivojlanmoqda*” (oddiy) vs. “*Tijorat faoliyati oshmoqda*” (rasmiy).

Stilistik jihatdan, dubletlar badiiy nutqda obrazlilik, huquqiy matnlarda aniqlik va takrorlanmaslik vazifasini bajaradi. Masalan, ingliz tilidagi *null and void* yoki o‘zbek tilidagi *bekor va batol* birikmalari huquqiy aniqlikni ta’minlaydi, badiiy adabiyotda esa *nur – yorug‘lik* kabi juftliklar obrazli ifodaning kuchayishiga xizmat qiladi.

Tarjima jarayonida, dubletlarning kontekstga mos variantini tanlash katta tilshunoslik kompetensiyasini talab qiladi. Har bir dublet juftligi o‘ziga xos konnotatsiya, tarixiy fon va uslubiy yukka ega.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dubletlarning noto‘g‘ri tanlanishi quyidagi holatlarga olib kelishi mumkin:

- Nutq g‘alatiligi – masalan, norasmiy kontekstdagi rasmiy dublet nutqning sun‘iy va nooddiy ko‘rinishiga olib keladi;
- Tarjimada semantik noaniqlik – konnotativ ma’nosi hisobga olinmagan dublet so‘z matn mazmunini buzishi mumkin;
- Tarixiy fonning e’tiborga olinmasligi – ayrim dubletlarning qadimiy yoki poetik ma’nolari noto‘g‘ri qo‘llanilganda nojo‘ya yoki mazmunsiz ifodalar yuzaga chiqadi.

Xulosa. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, leksik dubletlar ingliz va o‘zbek tillarida muhim lingvistik hodisa sifatida quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: dubletlar tilning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi, qadimgi va zamonaviy til birliklari o‘rtasidagi izchillikni ko‘rsatadi; Ular stilistik qatlamlarni tashkil etib, turli nutq uslublarida (badiiy, rasmiy, ilmiy, publiksistik) qo‘llanish orqali tilning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi; Pragmatik jihatdan, dubletlar rasmiy va norasmiy nutq registrlarini farqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, bu esa muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi sotsial-madaniy masofani belgilashga yordam beradi.

Tavsiyalar. Leksik dubletlarni o‘rganish va o‘rgatish: leksik dubletlar bo‘yicha bilimlar til o‘rgatish kurslari, ayniqsa, tarjimashunoslik va stilistika yo‘nalishidagi dars dasturlariga kiritilishi lozim; uslubiy va pragmatik tafovutlarni tushuntiruvchi amaliy mashqlar va qiyosiy tahlillar asosida o‘quv materiallari ishlab chiqilishi kerak.

Zamonaviy dubletlar rivojlanishini o‘rganish: o‘zbek tilidagi zamonaviy dubletlar, ayniqsa media tili, ijtimoiy tarmoqlardagi ifodalar, va so‘zlashuv tilidagi

yangi birliklar tahlil qilinishi lozim; texnologiya va globalizatsiya ta'sirida yuzaga kelayotgan yangi leksik juftliklarning semantik va stilistik xususiyatlari chuqur o'rganilishi kerak.

Tarjima amaliyoti uchun qo'llanmalar ishlab chiqish: tarjimonlar uchun dublet so'zlar tanlovi bo'yicha kontekstga mos tavsiyalarni o'z ichiga olgan metodik qo'llanmalar tayyorlash zarur; ayniqsa, huquqiy, ilmiy va badiiy matnlar tarjimasida dubletlarning to'g'ri qo'llanishi tarjima sifatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Malkiel, Y. (1978). Studies in English doublets.
2. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language.
3. Dadaboyev, H. (2000). O'zbek tilidagi arabcha-porscha kirimlar.
4. Ismatova, M. (2019). O'zbek adabiyotida stilistik dubletlar.
5. Biber, D. et al. (1999). Longman Grammar of Spoken and Written English.
6. Galperin, I.R. (1977). Stylistics.
7. Karimov, J. (2018). O'zbek tilida pragmatik sinonimiya masalalari.